



Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
15-avgust
N:33
(66834)

yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqqan boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Istiqlol farzandlari



Jamoliddin SALIMJONOV Istiqlol tengdoshi. Yoshlar o'rtasida kikkboxing bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi. Sportning penchak-silat va universal jang turi bo'yicha Respublika chempioni, Osiyo o'yinlari g'olibi. Jahon chempionati hamda Xitoyda o'tgan XVI Osiyo o'yinlari ishtirokchisi, bir necha xalqaro turnirlar g'olibi. U ilk saboqlarni otasi Qayum aka Mahmudovdan olgan. Yurtimizda bayram shukhi kezib yurgan ayni kunlarda, Jamoliddinni noan'anaviy suhbatga chorladik. Umid qilamizki, maydonda jismoniy va ruhiy imkoniyatlaridan unumli foydalanib kelayotgan sportchimizga bizning «eksklyuziv» suhbatimiz Makedoniya safari oldidan a'lo kayfiyat bag'ishlaydi.

(Davomi 2-betda)

BARHAYOT NAVOLAR



Yaqinda poytaxtimizdagi G'afur G'ulom nomli so'lim madaniyat va istirohat bog'ida «Barhayot navolar» turkumidan milliy cholg'ular ijrochilarining Respublika ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Yoshlarimizni qadimiy milliy cholg'ularga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish orqali o'zligimizni anglash, yangi iqtidorlarni kashf etish maqsadida o'tkazilgan mazkur tanlovda yosh ijrochilarning ham faol ishtiroki barchamizni quvontirdi. Xorazm viloyati, Urganch shahar san'at kolleji talabasi Lochinbek Mo'minov yakka cholg'u ijrochiligi bo'yicha birinchi o'ringa loyiq topilib, Diplom va qimmatbaho sovg'alalar bilan taqdirlandi. Bu yutuq'ini yurtimiz to'yiga to'yona qilgan Lochinbekka ijodiy parvozlar tilaymiz!

Olovuddin ORIPOV, Rahmonbek ISLOMOV olingan suratlar



ONAM KO'ZLARIDAGI NUR

yaqqol ochildan. Uni qayta-qayta o'qish sizga juda ko'p saboqlar berishini o'zingiz ham anglab olgansiz.

– Sening nechta do'sting bor? – so'raymiz kichikintoy Baxtiyordan.

– Meni bog'chada o'rtoqlarim ko'p: Mardon, Kim Li, Sasha, Ja'far, Gurbanali...

Shu bir gapning

o'ziyoq xalqimizdagi bag'rikenglikni ifoda etadi. O'zaro ahillik, yordamga muhtoj kishilar holidan

xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to'y-u tomosha, hashar va ma'rakalarni maslahat bilan o'tkazish yaxshi xislatlar, ammo, bilingki, yosh do'stim, ortiqcha dabbabozlik qilgan, o'ziga bino qo'yganlarga xalqimiz, albatta, o'z bahosini beradi.

O'tgan ajdodlarimiz ham masalaning ana shu tomoniga jiddiy e'tibor berganlar va ularni bizga asarlari orqali yetkazishga harakat qilganlar. Ana shunday insonlardan biri Abdulla Avloniy bobongizdir. U kishining «Turkiy Guliston yoxud axloq» nomli kitoblari bor. Iloji bo'lsa, bu kitobni ham topib o'qing. Unda Vatanni sevmok, ilm, sato, intizom, iffat, hayo, lafz, iqtisod, iborat, sadoqat, adolat, muhabbat, shuningdek, jaholat, g'azab, adovat, g'iybat, haqorat, hasad, zulm, yomon xulqlar teran tahlil etilgan. Afsuski, bunday asarlar o'tgan asrdagi qatag'onlar tufayli ta'qiqlab qo'yilgan edi, mustaqillik, ozodlik esa siz-u bizga ularni o'rganish va ulardan ezgu saboqlar olishga keng imkoniyatlar berdi.

Bir paytlar ustozlarimiz: «Yaxshi o'qinglar, bolalarim, Vatanning ertangi odamlari bo'lasizlar», deya nasihat qilishardi. Nahotki biz ham katta odamlar bo'lamiz-u, yurtning bir ishiga yaraymiz, degan o'yda yashardik. Biz Istiqlolni ko'rdik, aziz Vatanning baxtiyori insonlarimiz. Nasib bo'lsa, sizlar jonajon Vatanimizning yuz yilliklarini nishonlaysizlar. «Qanday hur o'lka, qanday ajoyib xalqning farzandlarimiz!» degan gaplarni ayitish qanchalik faxrli, qanchalik sharaf! Siz ana shunday e'tiroflarga loyiq avlodsiz, albatta.

Bugun sizlar «Odobnoma», «Vatan tuyg'usi», «Milliy istiqlol g'oyasi», «Madaniyatshunoslik», «Etika va Estetika» fanlaridan saboq olyapsizlar. Siz

buyuk ajdodlarning vorislarisiz. Siz ertaga ishlab chiqaradigan mahsulotlar jahonni lol qilishi kerak. Siz yozgan kitoblar ezgulikka xizmat qilsin. Bosgan har qadamingizda o'zbekona odob-axloq, mehr-muhabbat ufurib tursa, sizga «Balli» deyishadi. Ozod, hur Vatan sizning ana shunday tarbiya topishingiz uchun hech narsani ayamayapti. Sizning o'z gazetangiz – «Tong yulduzi» ham borligini unut-mang. Volidangiz ko'zlariga yana bir bor boqing, pokiza, mehrga to'la nurlar qalbingizni yoritib, unda ezgulik urug'larining unib chiqishiga turtki bo'lsin.

Mahallamizda Jo'ra aka degan obro'e'tiborli inson bo'lardi. To'ylarda davraning to'ri shu kishiga nasib etar, ko'cha-ko'yda hamma unga salom berib, so'rashib o'tardi. Choyxona yonidan o'tayotganda, albatta, qariyalar oldiga kirib, ularning har biri bilan hol-ahvol so'rashar, kimning biror muammosi bo'lsa, unga yordam berishga intilardi. O'zi ham muloyim, og'ir-bosiq, kamtar, biroz ishonuvchan, tanti odam edi. Maktab rahbarimiz ham uni hurmat qilar va «ma'rifatli inson» deb ta'riflardir. Bir gal muallimimiz u kishi bilan suhbatlashib, orada: «Siz bunday obro'ni qayerdan topgansiz, mana bu bolakaylarga gapirib bering», deya iltimos qildilar. Jo'ra aka juda muloyim kuldilar, ko'zlar mehrga to'ldi. Yuzlari ol qirmizi jilolanib: «Men ularning hammasi uchun xalqimdan behad minnatdorman», dedi u kishi.

Ko'rdingizmi, bolalar, bitta yaxshi inson mahalla-ko'yga, odamlarga, yurtga qanchalik ko'p mehr-muhabbat va yaxshilik olib keladi. Yomon-chi? Bitta yomon minglab yaxshi odamlarni balchiqqa qoradi, yurt manfaatiga ziyon keltiradi. Sizlarni yaxshilar qatorida ko'rish har bir ota-onaning, joiz bo'lsa, yurtning ham ezgu maqsadi. Shunday yurt va xalqqa munosib bo'lishga nima yetsin! Hazrat Navoiy bobongiz:

El netib topgay menikim,
Men o'zimni topmasam,
deganlar.

Volidangiz ko'zlaridan qalbingizga o'tgan nur Sizni sharaf bog'lari tomon yetaklayapti. Ko'zguga boqib ko'zlarinigizga qarang, bunga o'zingiz ham amin bo'lasiz.

To'lqin HAYIT



HAVAS

– Komil aka, yulduzlar ham shaklga egami?

– Sobirjon, sen mittivoyga buni tushuntirish uchun astronomiyani boshidan oxirigacha tushuntirishim kerak.

– Osongina tushuntira qoling, aka. Ana qarang, yulduzlar juda ko'p bu kecha!

– Xo'p, unda osmonga e'tibor bilan qara: har bir yulduz turkumi bir shaklga ega. Hov ana, ko'ryapsanmi, bir, ikki, uch... Ayiqning rasmini ko'rdingmi? O'sha Katta Ayiq yulduzi turkumi. Unisi yetti aka-uka. Yetti qaroqchi ham deyishadi. Hov avavinisining dumi bor, boshi ham bor, panjalarini ko'ryapsanmi? Bu Chayon yulduzi!

Sobirjon: – Shunaqami? – dedi hayratlanib.

Akasi unga yana shunday dedi:

– Mirzo Ulug'bek bobomiz koinotdagi 1018 ta yulduzni aniqlab, «Zijji Ko'ragoniy» asarini yozgan. Bu nihoyatda nodir asar hisoblanadi. Ul zot qanday qurilma bilan yulduzlar harakatini bunchalar aniq hisoblaganlar, degan savolga bugungi dunyo olimlari hali javob topolganlaricha yo'q. Balki ulg'aysang, bu vazifani sen uddalarsan, harqalay, tomingda buyuk ajdodlar qoni gupurib turibdi.

– Men ham yulduzlarni o'rganaman! – dedi Sobirjon zavq bilan.

ME'DAGA TEGMAYDIGAN TAOM



Bizda non quyoshga o'xshatib pishiriladi. Buning ham o'ziga yarasha jihatlari bor. Tandirdan chiqqan issiq non odamga xush yoqib, ishtahasini ochadi. Bu eski mavzu bo'lsa-da, biz sizlarga nonning bir muhim xususiyatini aytib o'tmoqchimiz. Mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, non oqsil, uglevodlar, mineral moddalarga boy bo'lib, ovqat hazm qilishni yaxshilaydi, ichaklardagi shilimshiklarni tortib oladi. Shu bois ham non sira me'daga tegmas ekan. Inson nonni qanchalik izzat qilsa, o'zi ham shunchalik e'tibor topadi. Demak, non faqat taom emas, inson uchun yaratilgan mo'jiza hamdir.

«ENDI YOLG'ON GAPIRMAYMAN...»



(Boshi 1-betda)

– Jamoliddin, Yunus Rajabiy nomli pedagogika kollejining jismoniy tarbiya bo'limini tamomladigiz. Poytaxtdagi 114-maktabda qanday baholarga o'qigansiz?

– A'lola o'qimaganman...

– Raqibingiz kuchli bo'lsa, qanday usul sizni qutqaradi?

– Har qanday sportchida jismoniy kuchdan ko'ra ruhiy holatning natijasi ijobidir.

– Siz g'oliblikni qanday qarshi olasiz?

– Bu holatni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi...

– Kikboksingdan boshqa qaysi sport turiga qiziqasiz?

– Erkin kurashga.

– Maktabda jismoniy tarbiya darslaridan qoniqarmidingiz?

– Unchalikmas...

– Sport kiyimlaringizni toza saqlaysizmi?

– Bu juda zarur.

– Yolg'on gapirasizmi?!

– Bolalikda gapirardim. Sport bilan muntazam shug'ullanish shu odatimni umuman yo'qotdi.

– Sportda ko'zlayotgan cho'qqingiz?

– Oktabr oyida Makedoniyada kikboksing bo'yicha yoshlar o'rtaida bo'lib o'tadigan Jahon chempionatidan jahon chempioni bo'lib qaytish.

– Sportchi bo'lmaganingizda, qaysi kasbni tanlagan bo'lardingiz?

– Bolalikdan dadam sportga qiziqtirganlari bois, faqat sportchi bo'laman, derdim. Boshqa kasb haqida o'ylab ham ko'rmagan ekanman.

– Kelajakdagi orzuingiz?

– Otam kabi yaxshi murabbiy bo'lish.

Suhbatdosh: G'OLIBA

Asis bolajonlar! Mana, yozgi ta'tilingiz tugashiga ham sanoqli kunlar qoldi. Barchangiz ta'tilni maroqli, mazmunli o'tkazayotiz, deya umid qilamiz. Tengdoshlaringiz Bobur va Feruza ham yozgi ta'tilni yodda qolarli o'tkazibdilar. Ular bu haqda bizga hayajonlanib, quyidagilarni so'zlab bordilar:

MAROQLI O'TGAN TA'TIL

endi bir yilga tatir

– Ta'tilning birinchi oyida tog'lar bag'rida joylashgan «Bildirsoy» bolalar dam olish oromgohiga otlandim, – deydi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi Bobur Mirfayozov. – Shohbekatda o'zimga o'xshagan

tengdoshlarimni ko'rib, ochig'i, rosa quvondim. Oromgohga yetib borganimizda, bizni guruhlariga bo'lishdi. Uch kundan so'ng, oromgohning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Bu tadbirda bizning guruh faol ishtirok etib, faxrli birinchi o'rinni egalladi.

Maydonchada futbol o'ynab, hovuzning muzdek suvlarida cho'milib chiniqdik. Oshpazlar pishirgan mazali taomlardan bahramand bo'ldik.

Xullas, o'n besh kun ko'z ochib yumguncha o'tib ketdi. Ba'zi tengdoshlarim «Oromgoh menga yoqmaydi, zerikarli», deyishsa hayron bo'ldi. Menimcha, bu fikr noto'g'ri. Negaki, menga oromgoh juda juda manzur bo'ldi.

– Men yozgi ta'tilda maktabimiz qoshida ochilgan oromgohda dam oldim, – deydi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 148-maktabning 4-sinf o'quvchisi Feruza Abdurahmonova. – Oromgohda ham sevimli mashg'ulotlarim bilan shug'ullanishni kanda qilmadim. Munchoq tikish, to'qish to'garaklariga qatnashganim bois, ta'tilda umuman zerikmadim. Turli rangdagi munchoqlardan kapalak, baliqcha, gul, ninachi, olma, nok yasadim, qo'g'irchoqlarimga kiyimlar to'qidim. Rasm to'garagida natyurmort va tabiat manzaralari rasmini chizdim.

Tengdoshlaringiz Bobur va Feruza kabi siz ham ta'tilda ko'ngilli dam olib,

kuch-quvvatga to'lgandirsiz? Shunday ekan, yangi o'quv yilida barchangizga omad va yaxshi kayfiyat tilab qolamiz.

Gulyuz BAHODIR qizi

Zuhra MUHSIMOVA olgan surat

SOVG'ALAR EGALARINI TOPDI

Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on agrokasb kolleji faollar zali ta'til kunlari bo'lishiga qaramay, kuni kecha o'quvchilar bilan gavjum bo'ldi. Bolajonlar «Qudratimiz birlikda va hamjihatlikda» shiori ostida o'tgan bayram tadbiriga yig'ildilar. Qiziqarli o'tgan tadbirda «O'zbekiston – Shveysariya» do'stlik jamiyati a'zolari bolajonlar bilan bevosita muloqotga kirishishdi.

– Barakalla, bolajonlar, – deyishdi do'stlik jamiyati raisining muovini Erkinjon aka Uralov va direktor Mahbuba opa Xalilova. – Viktorina savollarimizga to'g'ri javob berdingiz. Lekin tanlov o'z nomi bilan tanlov-da! Ikki yuz nafar bolalar orasidan birinchilardan bo'lib to'g'ri va aniq javob bergan olti nafar ishtirokchi tanlab olindi va g'oliblar antiqa sovg'alar bilan taqdirlanishdi.

Quyida ana shu savollarni sizning ham e'tiboringizga

havola etmoqdamiz. To'g'ri javob yo'llagan o'quvchilarni g'aroyib sovg'alar kutmoqda!

1. O'zbekiston va Shveysariya davlatlarining diplomatiya aloqalari qachon boshlangan?


2. Nega suv rangsiz, sut esa oppoq?

3. «Sutim» markali sut qaysi viloyatda ishlab chiqarilmoqda?

4. «Nestle» so'zining ma'nosi nima?

Javoblaringizni tahririyatga yuboring.

Flora FAXRUTDIN



Hozirda «Ermitaj»-da, O'zbekiston tarixi muzeyida, Samarqand Davlat muzeyi va Buxoro Davlat muzeyida shunday oynalar saqlanadi. O'rta asrlarga kelib, oynalar yangicha ko'rinish kasb etadi. Oynalar atrofi metall hoshiyalar bilan o'ralib, shishaga sir berish usulida yasaladi. Ularning orqa tomoni metall, keyinchalik yog'ochdan yasalgan qoplama bilan himoyalangan.

Xon va Amirlar saroylarida ishlatilgan oynalarni «Toshonalar» deyishgan. Ular billurdan tayyorlangan bo'lib,

orqa tomoniga kumush plastinkalar yopishtirilgan, uning ustidan qora rangda qoplama qilishgan. Ularning o'lchami g'ayritabiiy bo'lib, kishini butun bo'y-basti bilan ko'rsatadigan qilib yasalgan.

Hozirda muzeyga aylangan Buxoroning so'nggi amiri Sayid Olimxonning Sitorai Mohi Xosa saroyida uch tabaqali billur ko'zgu saqlanadi. Uning pastki qismiga tarvaqaylab o'sgan, chaman bo'lib ochilgan gul tasviri tushirilgan. Uning ichkarisiga kirib, ikki tomondan qaragan kishi gulzor

ichida saf tortgan holatda ko'rinadi.

Tasvirni ko'z ilg'agancha sanasangiz 40 ta, o'zingiz bilan birgalikda sanasangiz, qirq bitta ko'rinadi. Ko'zguni buxoroliklar «Qirqqiz» oynasi deb atashgan. Bu oyna haqidagi rivoyatga ko'ra, ko'zgu shunday sehrli kuchga ega ekan, inson qalbidagi niyatini uch marta aytga, unga erishar emish. Aslida bunday g'ayritabiiy oynalarni ko'rmagan kishilar bu afsonani to'qigan bo'lsalar kerak...

Sitorai Mohi Xosa saroyi qurilishiga taklif

qilingan nomdor ustalar Abdulla G'ofurov, Karim Taxta (Samadov), Jo'ra Harrot va xususan, Usta Shirin Murodov ko'zgu ustiga naqshlar tushirib, saroy zallarini bezatganlar. Oynalar qandillardagi yuzlab chiroqlar yongach, har bir bo'lagida alohida aks etib, oqshomlari ertaklar kabi sirli qasrlarni eslatuvchi jozibali manzara kasb etadi.

Bu san'at mohir me'mor Usta Shirin Murodovning ko'zgdagi haqiqiy mo'jizasidir.

Barno RUSTAMOVA

Vatan ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liq, degan gaplarni ko'p takrorlaymiz. Bolalar va o'smirlar, yoshlar — katta kuch. Zimmalaridagi yuksak vazifalar mas'uliyatini his etgan holda barkamol avlod tarbiyasi uchun fidoyilarcha mehnat qilayotgan ustozlarni eng ulug' va eng aziz bayramimiz bilan qutlash uchun ilm dargohlarida bo'lib qaytmoqdamiz. Ayni kunlarda o'tgan o'quv yili natijalari sarhisob qilinib, yangi o'quv yiliga katta tayyorgarlik ishlari bormoqda. Sirg'ali tumanidagi 300-Davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi azim poytaxtdagi ilm maskanlari orasida munosib o'rniga ega. Muxbirimiz mazkur ilm dargohi direktori Nasiba KAMOLOVA bilan suhbatlashib qaytdi.

BOLALIKNI SOG'INIB...

— Nasiba Qurbonovna, suhbatimizni boshlashdan oldin menga yoqqan she'ringizdan ikki satr o'qib bersam:

Opamning qo'g'irchoq tutgan qo'llari,
Arg'imchoq uchadi moviy samoda.

Nima demoqchiman, bolalikni har birimiz sog'inamiz. Shu ikki satrda siz bolalikni go'zal badiiy vosita orqali tasvirlagansiz. Kasbingiz ham havas qilsa arzigulik: ilm dargohi, murabbiylar, ustozlar — juda baxtliisizlar! Birinchidan, bolalarning beg'ubor olamida bola kabi quvnab yurasizlar; ikkinchidan, eng sharaflari vazifani bajaryapsizlar. Yangi avlod sizlarning tarbiyangizni olmoqda. Bugungi zukko bolalar va o'smirlar ertaga jonajon yurtimizni yuksak taraqqiyot cho'qqilariga olib chiqishlariga ishonaman. Ishonchda hikmat ko'p, nima deysiz?!

— Bolaligimni yodga solganingiz uchun rahmat! U paytlarni yaxshi eslayman. Opamning qo'g'irchoq o'ynatganlari, onamning allalari hamon esimda. Aslida maktablarda bolaqalbli insonlar mehnat qilishadi. Bolalik — murakkab dunyo, birgina o'ylamay aytilgan so'z bola qalbini majruh qilib qo'yishi mumkin. O'qituvchilikning mas'uliyati ham ana shunda.

Yurtimizda yashayotgan pok niyatli barcha insonlarning maqsadlari mushtarak, xususan, biz maktab ahlining maqsadi va niyati ham barkamol avlodni chinakam insoniy mezonlar asosida tarbiyalashdan iborat. Ko'p takrorlaymizki, yoshlar uchun nimaiki zarur bo'lsa, hammasi muhayyo etilyapti: zamonaviy maktablar, o'quv qurollari, innovatsion texnologiyalar — barcha-barchasi yurt bolalarining har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qilyapti. O'tgan yili xalq ta'limi tizimiga

kiritilgan o'zgartirish va yangiliklar, joriy etilgan reyting tizimi yil yakunida o'z samarasini berib, ta'lim-tarbiyani sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi, desak mubolag'a bo'lmas.

— O'tgan yilda bajarilgan ishlarni tilga oldingiz. Xulosalar qanday?

— O'tgan 2010-2011-o'quv yilida



birgina boshlang'ich sinflarda 48 nafar tajribali, mahoratli, oliy ma'lumotli o'qituvchilar faoliyat olib borishdi. Jami o'qituvchilar 36 ta sinfga taqsimlanib, o'qitildi. O'zbek sinflari 22 tani, rusiyabon sinflar 14 tani tashkil etdi. 2-sinflarda test va psixologik nazorat asosida 150 nafar o'quvchi qabul qilinib, davlat kvotasi bajarildi.

— Barcha maktablarda «Fan oyli» katta tayyorgarlik asosida o'tkazildi. Bu borada siz rahbarlik qilayotgan ilm maskanida qanday natijalarga erishildi?

— Bu sohada qat'iy reja asosida ish olib borildi. Oylikning birinchi haftasida 2-, 3-, 4-sinflarda ona tili, matematika, o'qish, tabiat, odobnoma fanlaridan tashqi nazorat uchun test sinovlari o'tkazildi. «Fan oyli»ning ikkinchi haftasida esa fanlardan ochiq darslarga keng o'rin berildi. O'qituvchilarimiz o'rin almashgan holda shunday darslarni mahorat bilan tashkil etib, o'quvchilarning bilimlarini yanada oshirishlariga imkon yaratdilar. Shuningdek, hafta davomida rasmlar, qo'l mehnati va «Biz dunyoni chizamiz» tanlovlari o'tkazilib, g'olib o'qituvchilar taqdirlandilar. Bu ishlarni tashkil etishda o'qituvchilarimizdan L.Qodirova, T.Abduraimova, N.Turopova, K.Tojiyeva, N.Jamoliddinova, E.Ayupova, I.Yusupovalar jonbozlik ko'rsatdilar.

— Maktabda uchinchi chorak «Media darslar choragi» deb e'lon qilingan ekan. Nima uchun?

— Maktab pedagogika Kengashining qaroriga ko'ra, haqiqatan ham uchinchi chorak shu nom bilan ataldi. Barcha o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan foydalanib, sinf salohiyati doirasida darslar tashkil etishdi. Kuzatishlar natijasida F.Afleyeva, S.Sobirova, R.Shokirovalarning media darslarining talab darajasida bo'lganligi e'tirof etildi.

— «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovida ishtirok etgan o'qituvchilar bor ekan...

— Rus tili o'qituvchimiz Nigora Turopova tumanda birinchi, shaharda ikkinchi o'rinni, o'qituvchimiz N.Kazi esa respublika miqyosida birinchi o'rinni egallab, mutlaq g'oliblikni qo'lga kiritdi va Xalq ta'limi vazirligining Diplomi bilan taqdirlandi.

O'z muxbirimiz

O'ZIMGA O'XSHAR

Bolajon, ko'zlarim ko'zingga o'xshar,
Sening sho'xliklaring o'zimga o'xshar.
Yuragim o'xshaydi yuraklaringga,
Sog'inching ruhafzo izimga o'xshar.

Bolajon, boshimdan oyog'im tuyg'u,
Tuyg'usiz kunlarim sensiz qaytadi.
Mening senga bo'lgan sog'inchlarimni
Chiqib so'ra qirdan — shamol aytadi.

Bolajon, yuragim o'zingsan mening,
So'zlaring so'zimga ketadi o'xshab.
Intilib boraman baxtingga sening,
Gullagan umrimni poyingga to'shab...



TAHRIRIYATDAN:

Barcha o'qituvchilarni mustaqilligimizning yigirma yilligi bilan tabriklagan holda yangi o'quv yilida ularga sog'lik va omad yor bo'lishini tilaymiz.

Quyida Xalq ta'limi a'lochisi, ijodkor rahbar Nasiba opa KAMOLOVA ijodidan namunalar o'qiysiz:

YOZ OQSHOMI

Sollanib borar Oy samoda,
Dilimga yog'ilar nurlari.
Tegramda o'ynaydi go'yoki —
Jannatning bezavol hurlari.

Aylalar boshimda bu falak,
Rayhonlar nafasi afsungar.
Olisda kuylaydi yulduzlar,
Bunchalar mukarram va dilbar.

Men oqib ketaman havoda,
Daraxtlar men haqda o'ylaydi.
Har yaproq bandida yuragim,
Sehrlil bir so'zni so'zlaydi.

Yulduzlar kuylaydi dilimni,
Raqqos Oy boradi sollanib.
Vo'ajab, bu qanday tun bo'ldi —
Ketayapman osmonga aylanib.

Qaysidir ertakda o'qiganim bor: qadimda bir shahzodaning ishqiy oddiy bog'bon qiziga tushibdi va unga uylanmoqchi bo'lib, sovg'i jo'natibdi. Qiz esa shahzodaning taklifiga rozi bo'lishdan avval qo'lida qanday hunari borligini so'rabdi. «U axir podshohning yakka-yu yagona o'g'li bo'lsa, hunar o'rganishiga ne hojat?!» ajablanishibdi sovg'ichilar. Shunda dono qiz to'ju taxtning, mol-u davlatning o'tkinchiligini, hunar esa insonning ziynati bo'lib, uni bir umr nochohtlikdan, muhtojlikdan asrashini aytibdi.

Shahzoda qizning aql-u zakovatiga tan berib, bir yil mobaynida hunar o'rganibdi va murodiga yetibdi...

Insonlarni yaxshilikka yetaklovchi, ularning qalbiga ezgulik urug'ini sochuvchi ertak va rivoyatlar aslida hayot saboqlari asnosida yaratiladi. Qissadan hissa shuki, qadim-qadimdan ota-bobolarimiz hunarning qadrini baland tutganlar, uni zarga qiyoslaganlar, hunarli insonlarni e'zozlaganlar.

Turg'unlik yillariga to'g'ri kelgan o'quvchilik yillarimni yaxshi xotirlayman: maktabdagi o'zlash-tirishi past bo'lgan o'quvchilarni, yaxshi o'qimasang, hunar o'rgatuvchi maxsus maktabga jo'natib yuboramiz, deya qo'rqitishardi. Hozirda esa yoshlarimiz Istiqlol sharofati bilan qad rostlagan ko'r-kam, shinam, zamon talablari darajasidagi kasb-hunar kollejlari tahsil olishni sharaf deb bilishadi. Biror hunarning boshini tutish bilan cheklanib qolmay, ilm-fan cho'qqilarini zabt etishga ham intiladilar.

Men maishiy xizmat kasb-hunar kollejinii tamomlagan Saodat ismli bir qizni taniyman, yoshgina bo'la turib bir emas, ikkita go'zallik salonida kunora mehnat qiladi. Unga navbatda turganlar soni uzoq yillik tajribaga ega ayrim sarta-

roshlarnikidan ham ko'p, desam mubolag'a qilmagan bo'laman. Oyog'i ham, qo'li ham tinmaydigan bu qiz u salondan bunisiga yugurib charchamaydi. Yuzidagi tabassumni ko'rib, sizning ham kayfiyatingiz ko'tariladi.

Tunov kuni Saodatning onasi bilan suhbatini beixtiyor qulog'imga chalinib qoldi: «Qo'lingda guldek hunaring bor, kelgusida o'zingni

ham, bola-chaqangni ham boqadi. O'qishga kirishing sharmi? Kirolmay qolsang, ko'ngling cho'kadimi, deymanda...», dedi onasi mehr bilan.

—Oyijon, hunarim o'zimniki. Lekin men oliygohda bilim olishni xohlayman. Bugun hujjatlarimni topshirib kelaman, siz duo qilib tursangiz, albatta, o'qishga kirib ketaman. Hali niyatlarim ko'p: a'lo baholarga o'qib, Grant asosida xorijda ham

likni allaqachon boshlab yuborishgan. Siz esa uzdu-kun ishdasiz, qiziqib so'radim Saodatdan.— Yoki ayrim abituriyentlar kabi bilimingizga emas, «shpargalka»larning «bemin-nat yordami»ga ishonaysizmi?

— Men har kuni tonggi soat 5.00 da uyg'onaman. Bu paytda insonning miyasi tiniq bo'ladi va ko'plab ma'lumotlarni qabul qilish, eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi,

SAODATNING SAODATI



deyishadi. Shuning uchun ishga kelgimcha kitob o'qiyman, imtihonlarga tayyorlanaman. Yurtimizda biz yoshlarning bilim olishimiz uchun imkoniyatlarimiz yetarli. Unumli foydalanmoq burchimiz. Ko'plab tengdoshlarim kabi men ham bilimim, salohiyatim, qolaversa, omadimni sinab ko'rmoqchiman...

Tunov kuni Saodatni uchratib qoldim, u yurib emas, go'yoki uchib borardi. Imtihonlarni so'rasam, barcha fanlardan savollarga javob yozdim, uyga kelib tekshirsam, hammasi to'g'ri chiqdi, dedi mammuniyat bilan. Undagi bilimiga, o'ziga bo'lgan ishonchni ko'rib, ixlosim yanada ortdi. Saodatning timsolida bugunning intiluvchan, izlanuvchan yoshlari — kelajagimiz egalari shijoatini ko'rib, qalbim faxr va iftixorga to'ldi.


Feruz JALILOVA

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

Gazetamizning eng faol muxbirlaridan biri Shodiyabegim Sharofiyi nafaqat bizning muxlislarimiz, balki «Gulxan», «G'uncha», «Ma'rifat», «Turkiston», «Sinfidosh» kabi respublika nashrlarining o'quvchilari ham mazmunli, dolzarb mavzudagi maqolalari orqali juda yaxshi tanishadi. Shodiyabegimni «faollarning faoli» deb atagimiz keldi. Boisi, gazetamiz orqali e'lon qilinayotgan biror tanlov yo'qki, Shodiyabegim unda ishtirok etmagan bo'lsa. «Vatan ichra mo'jaz Vatanim», «Qishlog'im — qalb ardog'im», «Onajonim tabiat» kabi insholar tanlovda faol ishtirok etib, sovrindorlar qatoridan munosib o'rin oldi. Ayni kunlarda, biologiya fanlari doktori, professor Umarqul Rahmonqulov rahbarligida «Qishloqda ekologik turizm»ni rivojlantirish mavzusida ilmiy izlanishlar olib borayotganini eshitib, tabiatga oid tanlovimiz besamar ketmaganidan behad mamnun bo'ldik.

Kuni kecha undan yana maktub oldik. Gazetamizda e'lon qilingan «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovda qatnashish niyatini bildiribdi. Uning maktabdagi eng iqtidorli, kitobxon o'quvchi ekanligini, o'qigan kitoblari soni 147 tani tashkil qilishini sinf rahbari M.Temirova hamda maktab direktori G.Karimova tasdiqlab, Shodiyabegim kelajakda Vatan oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan ado etadi, deya ishonch bildirishgan. Tirishqoq, izlanuvchan, kitobsevar bu qizimizning g'oliblar qatoridan munosib o'rin olishiga tilakdoshmiz. Shu o'rinda eslatib o'tamiz: «Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanlovi shu yil 1-Oktabr — Ustoz va murabbiylar kuni»da yakunlanadi. Tanlovda qatnashishga shoshiling, maktublaringizni kutamiz.

TAHRIRIYAT



Samarqand tamaddun beshigi, ilm-ma'rifat eshigidir. Yor yuzi durdonasi nomini olgan bu ko'hna zaminda ham mustaqilligimizning 20 yilligiga tayyorgarlik ishlari avjida. Ayni bayram arafasida, ta'tilning qisq'in kunlarida samarqandliklarning fikr-o'ylari, orzu-umidlari bilan o'rtoqlashdik.

YER YUZI DURDONASI

Yusuf MUHAMMADIYEV, Samarqand viloyati, Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari:



SHUKRONALIK HISSI

– Bugungi kunda o'g'il-qizlarimizning mustahkam bilim salohiyati, kuchli jismoniy tayyorgarligi kishini quvontiradi. Nufuzli xalqaro musobaqalarda ular erishayotgan yutuqlar tahsinga sazovor. Yigirma yil tarix uchun juda qisqa muddat. Lekin shu oz fursatda yurtimizni dunyo yaqindan tanidi. Bu davr mobaynida qo'lga kiritilgan yutuq va natijalar, xususan, ta'lim tizimida amalga oshirilgan ulkan islohotlar, erishilgan yutuqlar mohiyatini keng targ'ib qilish maqsadida, Samarqand vilo-

yati hokimligi bilan hamkorlikda «Shunday go'zal yurtga jon baxshida» shiori ostida ko'plab loyihalar amalga oshirilmog'da.

Joylarda bo'layotgan tadbirlarda yoshlar mustaqillik yillarida ko'hna urf-odatlarimiz va an'alarimizning qayta tiklanganligini alohida ta'kidlamog'dalar. Ularning shu yurtga munosib farzand bo'lishga intilayotganliklarini ko'rib, ezgu amaliy ishlarimiz, barcha harakatlarimiz behuda ketmayotganligiga shukronalar aytamiz.

Mavjuda OMONOVA, Paxtachi tumani Xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limi mudirasi:

– Viloyatimizning eng chekkasida joylashgan Paxtachi tumanidagi 47 ta umumta'lim maktablaridan 26 tasi zamonaviy binolarda joylashgan, 46 tasi esa gazlashtirilgan, 25 ta maktabda sport zallari mavjud.

Shuningdek, Qarnab qishlog'ida joylashgan 52-maktab-internatida sport zali qurilishi olib borilmoqda. Xumor



IMKONIYATLAR ESHIGI

qishloq fuqarolar yig'inidagi suzish havzasi kapital ta'mirlanmoqda. Ziyovuddin shaharchasidagi bolalar sport maydonchasi qurilishi esa tugallanish arafasida.

O'quvchilarning yozgi ta'tillarini mazmunli o'tishi uchun bor imkoniyatlarimizni ishga solyapmiz. Chunonchi, 1-litsey-internatda hamda 45-maktabda kunduzgi oromgoh

tashkil etildi. «Xumor» oromgohi bolalarni o'z bag'riga chorladi. Uyda dam olayotgan o'g'il-qizlarimiz uchun maktablarimizda bir necha to'garaklar tashkil etildi.

Farzandlarimiz uchun qiladigan ishlarimiz hali juda ko'p. Biroq, o'quvchilari-mizning har jabhada faolliklarini ko'rib, qalbimiz yanada g'ururga to'ladi, kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shiladi.



XURSHIDANING ERTAGI

Xurshida IBRAGIMOVA, Pastdarg'om tumanidagi 94-maktabning 6-«B» sinf o'quvchisi. Uning ta'tili juda quvnoq va mazmunga boy o'tmoqda. Buni Xurshidaning chizgan rasmlaridan bilib oldik. Agar u kitobga mehr qo'yaganida, «Maqtanchoq G'oz», «Bo'ri bilan Ayiq», «Oygul bilan Baxtiyor» kabi ertak qahramonlarining rasmlarini mahorat bilan chiza olmasdi-da. Xurshidaning ertagini ko'ring va baho bering.



hozirda millionlab mehmonlarning qadami uzilmaydi.

– Men Katta Ravot qishlog'ida tug'ilib, voyaga yetdim. Qishlog'imizda yurt koriga yaraydigan, fikri teran, jismonan sog'lom yoshlarning safi kundan-kun kengayib borayotganligi meni juda quvontiradi, ilhomlantiradi.

Hovlisidan rayhon, yuragidan shukronalik ifori ufurib turgan qishloqdoshlarimning bari Istiqbolga tashakkur aytib yashaydi. Shulardan ilhomlanib quyidagi misralarni yozdim:

Har tong yog'iladi baraka nuri,
Insonlari tuyar tinchlik sururin.
Ko'ngillari kichik, baland g'ururi,
Kelajagi porloq, Ravot qishlog'im.

O'tmishi sharaflı, buguni saodatli,
kelajagi nurafshon yurtimning mustaqilligi muborak bo'lsin!

Feruza SOYIBJON qizi

BARAKA NURI

Nargiza YUNUSOVA Toyloq tumanidan. U ko'hna va navqiron Samarqandni hech bir shaharga qiyoslay olmaydi. Ayni paytda O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi 2-sonli akademik litsey o'quvchisi bo'lgan Nargiza bilan ona shahri haqida suhbatlashar ekanmiz, qalbi hayajonga to'lib-toshadi.

– Mustaqillik sharofati bilan qayta chiroy ochgan, gullab-yashnagan bu shahardan



Chex xalq folkloridan

SUTINGDAN BER

Sutingdan, ola sigir,
Hech bo'lmasa ozroq ber...
Bola mushukchalarim,
Kutar ushoqchalarim.
Bir qoshiqcha qaymoq ber,
Suzmami yo saryog' ber.
Sigirning suti har dam
Hammani qilar sog'lom!

DAVRAMIZGA

Shoxi bo'lib echkicha
Turmas shoxlamay.
Chaqqon, quvnoq qiz turmas
Raqsnı xohlamay.
O'tga haydang echkini
Shoxidan ushlab.
Davramizga qizchani
Kelaylik boshlab...



UQUVSIZ QO'NG'IZCHA

Qo'ng'izchaman, qo'ng'izcha,
Erka qo'ng'iz, o'g'ilcha.
Shoxga urgandim bolta,
Qoldim qiyin ahvolda.
Do'xtirga chopib bordim:
Dedim: Bering tez yordam.
Qarshilab do'xtir qizcha,
Ish chatoq der, qo'ng'izcha.
Men qo'ng'izcha –
Sho'x o'g'ilcha.
Kesayin deb shoxchani,
Siltagandim boltani.
Shum shoxcha sakrab qoldi,
Oyog'im kesib oldim.



UCH NO'XATCHA

Aravaga xo'rozni qo'shib,
Borar edim uch no'xat ortib.
Manzilimga yetay deganda,
No'xatlarni qo'ydim yo'qotib.

Qambar OTA tarjimasi

Bolajonlar, siz gazeta sahifalaridagi maqolalarni qanday o'qiydiz? Maslahatimiz — har bir so'zning mag'zini chaqirganda, maqola orqali biror ma'lumotga ega bo'ling.

Quyida ko'p yillik tarixga ega bo'lgan «Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Harakatlari» tashkiloti haqida ma'lumot beramiz.



Kuni kecha «Temiryo'lchilar kasb bayrami»ga bag'ishlab O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi oldidan anjuman o'tkazildi. Unda O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati temiryo'l mintaqaviy tashkiloti tomonidan temiryo'l tizimida olib borilgan ishlar sarhisob qilindi.

1992-yil 28-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi va Yurtboshimiz mazkur jamiyatning faxriy rahbari etib tayinlandi.

Jamiyat xodimlari, faollari va ko'ngillilari Xalqaro Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Harakatining yetti tamoyili—insonparvarlik, xolislik, betaraflik, mustaqillik, ixtiyoriylik, yagonalik va umumiylikka amal qilgan holda ezgu ishlarni amalga oshirmoqda.

MAQSADIMIZ



EZGULIK

Temiryo'l mintaqaviy tashkiloti 1957-yili ta'sis etilgan. U o'z ichiga 11 ta mintaqaviy bo'linma va 187 ta boshlang'ich tashkilotlarni birlashtiradi.

Xo'sh, bu jamiyatning vazifasi nimalardan iborat ekanligini

bilmoqchimisiz? Bu haqda bizga Qizil Yarim Oy Jamiyati Temiryo'l mintaqaviy tashkiloti tashkiliy bo'lim boshlig'i Feruza **ORIPOVA** quyidagilarni so'zlab berdi:

— Bugungi kunda tashkilotimiz temiryo'l tizimi tasarrufidagi

Toshkent temiryo'l muhandisligi instituti, Toshkent, Samarqand va Qo'qon transport kasb-hunar kollejlari, Mirobod akademik litseyi bilan hamkorlik asosida faoliyat olib boradi.

— 10 mingdan ziyod talaba-yoshlar tashkilotimizning a'zosi sanaladi.

«Eng yaxshi yigitlar xonasi», «Eng yaxshi qizlar xonasi», «Eng namunali yotoqxona» kabi qiziqarli tadbirlarimiz talabalarimizga tozalikka rioya qilish va salomatlikni mustahkamlash bobida ibrat bo'lmoqda.

Yaqinda tashkilotimiz tomonidan «Ekologiya va salomatlik oyligi»da faol ishtirok etgan mustaqillik bilan tengdosh 100 nafar talabalarga sport kiyimi taqdim etdik. Shuningdek, tashkilot tomonidan o'tgan olti oy davomida 7 million so'mlik xayriya tadbiri uyushtirildi. Jumladan, temiryo'lchilarning farzandlari uchun respublika Qo'g'irchoq teatri, respublika Yosh tomoshabinlar teatri, madaniyat va istirohat bog'lariga taklifnomalar taqdim etildi. Kam ta'minlangan oila farzandlariga moddiy yordam ko'rsatildi.

Darhaqiqat, har kim savob ishni har kuni qilsa yarashadi. Ezgulik yo'lida qadam tashlayotgan «O'zbekiston temiryo'llari» rahbariyati faoliyatiga havas qilsa arziydi.



ZARBDORNING FAXRI

Fahriyatimiz xodimlari Sa'dulla ota QOZOQOVni yaxshi bilishadi. Sababi, yoshlardek serg'ayrat otaxon bizga maqolalar olib kelib charchamaydilar. Bugun kekxa jamoatchi muxbirimiz — tengdoshingiz Baxtiyorjonni siz-u bizga tanishtirmoqchi.

Jizzax viloyati, Zarbdor tumani, Lalmikor qishlog'ida yashovchi 12 yoshli Baxtiyorjon yaqinda Istanbul shahridan qaytdi. U otaxonga Turkiyaga jo'nab ketgan yosh kurashchilarning 19 nafari jizzaxlik bolalar bo'lib, Istanbulning gullar shahri ekanligini so'zlab beribdi.


9-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi Baxtiyorjon Karimov sportning o'zbek milliy kurashi turi bilan shug'ullanadi. Sportning bu turiga qiziqishining boisi, yurtimizning mashhur polvoni Abdulla Tangriyev va buxorolik Sobir Qurbonovga havasi balandligidan ekan. Niyati, ular kabi mashhur bo'lish hamda yurt faxriga aylanish. Hozirda u BO'SMda kurash sirlaridan saboq olmoqda. 3-o'rta maktab qoshida tashkil etilgan to'garakka qatnashib, musobaqalarda sovrindor bo'ldi.

Namanganda o'tgan bellashuvlar ham uni birinchilikka loyiq topdi.

Qishlog'imiz chempioni

Turkiyadagi xalqaro turnirda Baxtiyorjonni xitoylik, yaponiyalik tengdoshlari tanishdi. Axir dzyudo bellashuvlarida u uch nafar raqibining yelkasini yerga tekkizdi, faqat to'rtinchi raqibini yengish qiyin bo'ldi. O'zbek kurashi bahsida esa oltin medalga da'vogarlik qildi. Bronza va oltin medal bilan Zarbdorga qaytganda, hamqishloqlarining boshi ko'kka yetdi. Shu tariqa Baxtiyorjon Zarbdorning faxriga aylandi.

«Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanlovi



Erta tong. Hamma shirin uyquda edi. Shu payt birdan Odil bobo «Yo'-o'-o'-o'-o'-o'-q» degancha bo'shini yostiqtan ko'tardi. Nimadandir cho'chigan Odil bobo o'rindan turib, sekin qo'ltiqayoqqa qo'l uzatdi, unga tayanib tashqariga chiqdi. Ohista qadam tashlab qadrdon daraxtning yoniga bordi va odatiga ko'ra u bilan suhbatlasha boshladi:

«Bilasanni, daraxtjon, bugun tushimda yana do'stim Qodirni ko'rdim. U men uchun ko'ksini o'qqa qalqon qilgan edi. Men esa unga hech qanday yordam bera olmadim. U g'amgin ko'zlari bilan menga boqdi. Kaftimni ochib bir siqim tuproq soldi-da: «Uni asra», deya jon berdi».

Odil bobo pichirlab shu gaplarni aytdi-yu, ko'zlaridan shashqator yosh oqdi. Birozdan so'ng o'ziga kelib, «Ha, urush ofat, u qancha umrlarga zomin bo'ldi-ya! Hozir esa Ollohimga ming shukrki, tinchlik-omonlik zamoni. Ilohim tinchligimiz, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!» deya qo'lini duoga ochdi.

Dilorom QO'ZIBOYEVA,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
1-umumta'lim maktabi o'quvchisi

MUALLIFLAR DIQQATIGA:

«Tong yulduzi» gazetasiga maqola, xabar va boshqa adabiy asarlar yozganliklari uchun qalam haqi to'lashga quyidagi hujjatlar talab etiladi:

1. Kattalar uchun pasport nusxasi, maktab o'quvchilari uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi, o'quv dargohi va mahalladan ma'lumotnoma.
2. INN raqami.
3. Jam'arib boriladigan nafaqa daftarchasidan nusxa.

Ushbu hujjatlar nusxalari taqdim etilmasa, qalam haqi to'lanmaydi.

DASTLABKI QADAMNI TASHLANGI

Bir tanishimni uchratib, uzoq vaqt gurunglashib qoldik. Gap orasida do'stim yaqinda bo'lib o'tgan zilzilada qo'rqib ketishgani, bolalari bilan ertalabgacha uxlamay chiqishganini gapirib berdi. Uning zilzila paytida qanday harakatlanish haqida unchalik tayyorgarligi yo'qligidan hayratga tushdim. Bu narsalarni yosh-u qari hammamiz bilishimiz kerak emasmi?

Mavzuning dolzarbligini inobatga olib, biz ham obunachilarimizga ko'proq ma'lumot berish maqsadida, 1996-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Fuqaro muhofazasi institutida bo'ldik.

Institut direktori So-bir Xalilov favqulodda vaziyatlarda qanday harakatlanish borasida institut tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalar, albomlar, plakatlar va turli tavsiyanomalar bilan tanishtirdi. Shundan so'ng, institut kutubxonasida bo'ldik. Mazkur dargohda xizmat qilayotgan Zahro Ilyosova, Sumbul Husanova kabi tajribali ustozlar bizga hamrohlik qilib, ko'p yillik tajribalari asosida favqulodda vaziyatlarda qanday harakatlanish borasida ko'plab ma'lumotlar berdilar.

Mutaxassislar bilan muloqot chog'ida yana bir narsani bilib oldik. Har bir inson xoh xonada bo'lsin, xoh tash-

qarida, zilzila sodir bo'lganda qanday harakatlanishni bilishi lozim. Zilzila paytida uyning ichida bo'lsangiz, darhol vannaxona, hojatxonaga kiring yoki eshik kesakisi ostiga turib oling. Bu joylar xavfsiz hisoblanadi. Chunki uylarning tayanch nuqtasi o'sha yerdan o'tadi. Mustahkam stol osti ham eng yaxshi himoya vositasi hisoblanadi. Kreslo, divan yoki krovat ham sizga asqotishi mumkin. Ko'p qavatli uylarning balkoniga,

liftlarga chiqish tavsiya etilmaydi. Agar siz bir qavatli uyda bo'lsangiz, tashqariga chiqish uchun tez va ehtiyotkorlik bilan harakat qiling. Kichik yostiqlar yordamida boshingizni pana qilishni unutmang.

Kattalar hamisha ta'kidlab kelgan o'g'itlardan birini esga olaylik: ular yer qimirlagan paytda jimgina o'tirishni tayinlashadi. Aslida, bu gapda ham jon bor ekan. Yer tebranib turgan paytda harakatlangan insonlar ko'pincha aziyat chekarkanlar. Chunki qalqib turgan qandil yoki shkaflar tepasidan tushgan buyumlardan jarohatlanish xavfi ko'proq bo'ladi.

Mana, bolajonlar, zilzila chog'ida qanday harakatlanish borasida biroz ma'lumot berdik. Tabiiy ofatlar ro'y bermasin-u, lekin bunday paytlarda harakatlanish qoidalarini bilib qo'ysangiz, foydadan xoli bo'lmaydi: hamisha har ishga tayyor bo'lishga o'rganing.



Krovatingiz yonida qo'l fonari, oyoq kiyimi va qo'lqop tursin. Krovatingizni deraza yonidan chetroqqa oling. Shkafni devorga taqab qo'ying. Devordagi buyumlarni ilmoq bilan mustahkamlang.

Oila a'zolaringiz davrasida favqulodda vaziyatlarda qanday harakatlanish rejasini muhokama qiling. Hozircha yuqoridagi ko'rsatmalarimizga amal qilsangiz, tabiiy ofatlarga qarshi tayyorgarlik borasida dastlabki qadamni qo'ygan bo'lasiz.

Yusuf ABDULLAYEV

MUZQAYMOG'IM – SOZ QAYMOG'IM

Dunyodagi barcha shirinliklarga, shokoladlar-u muzqaymoqlarga o'ch bolajonlar! Yozning jazirama kunlarida miriqib muzqaymogxo'rlik qilayotgandirsiz-a? Lekin orangizda u haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaganlar ham topiladi. Shuning uchun muzqaymog haqida ayrim ma'lumotlar to'pladik. Qiziqsangiz, o'qib ko'ring:

Ilk muzqaymog bundan 5 000 yil muqaddam Xitoyda paydo bo'lgan. Ayni damda yoz fastida butun dunyoda har 3 soniyada 1 dona muzqaymog sotilarkan ekan. Eng katta muzqaymogli tortni pekinlik muzqaymog ustalari tayyorlashgan. Uning kengligi bor-yo'g'i uch metrni tashkil qilsa-da, og'irligi 8 tonna kelar ekan. Dunyodagi eng qimmat muzqaymog Nyu-Yorkning Serendipiti restoranida sotiladi.

Vafli turidagi muzqaymoqlar Amerikada 1904-yilda paydo bo'lgan. Olim V.Volkovning aytishicha, muzqaymog yozning issiq kunlarida tana haroratini tushirib, inson organizmidagi quvvatni tiklash xususiyatiga ega. Shuningdek, muzqaymog lohaslikka qarshi eng yaxshi davodir.

Olimlarning so'nggi izlanishlariga ko'ra, muzqaymog kishini diqqatnasflik, ko'ngil g'ashligi, tushkunlik holatlaridan qutqaradi. Muzqaymog yeb turgan odamlarning qon aylanishi yaxshilanadi, kayfiyati ko'tariladi. Shifokorlar hatto tomog'i og'rikan bemorlarni ham muzqaymog yordamida davolashni ma'qul ko'rar ekanlar. Shu kunlarda yurtimizda ham yosh-u qari sevib iste'mol qiladigan muzqaymogning turli juda ko'payib bormoqda. Masalan: «Briket», «Dublet», «Gulliver», «Supperchok», «Richman», «Grand», «Konus», «Eskimo» va turli mevali muzqaymoqlar eng mazali hamda mashhuridir.

Ammo har narsaning me'yori bo'lganidek, muzqaymogni ham bir kunda 1 yoki 2 dona iste'mol qilish kifoya. Zero, asalning ham ozi shirin-da!

Manzura UBAYDULLAYEVA



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT»: yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Svetlana INOMOVA,
Odina JAMOLDINOVA,
Jahongir MUSAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA.

Manziliimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31634
Buyurtma N: J 2482